

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY MAKTABLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Norova Nargiza Xalmamat qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 13.00.02- Ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi
I bosqich tayanch doktoranti
O'zbekiston, Nukus*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xususiy maktablarning nechog'lik ahamiyati, ta'lim rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan, xususiy maktablarning afzal taraflari sanab o'tilgan. Xususiy maktablarning rivojlanishi, ularning kelajagi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xususiy maktab, dars, taraqqiyot, bilim, salohiyat, xorij, tajribasi, Milliy dastur.

Dunyo bo'ylab ta'limning barcha boshqichini xususiylashtirish ommalashmoqda va o'z natijasini bermoqda. Ta'limni xususiylashtirish ta'lim sifatini oshishiga olib keladi. Bu esa har bir mamlakat rivojining asosi hisoblanadi. Yurtimizda ham ko'plab xususiy ta'lim maskanlari ochilmoqda. Bolalar ilk aniq va ilmiy asoslangan bilimlarni maktabda oladilar, endi xususiy maktablarning ma'lumotlar bazasini tasavvur qiling. Xususiy maktablarga erkinlik berilgani bilan ularning dasturi davlat ta'lim standartlariga mos bo'lishi shart. Ular berayotgan bilimlari chuqurlashtirilgan, integratsiyalashgan, intensivlik bilan amalga oshirishadi. Shu bilan bir qatorda Milliy dasturlardan chetlashmagan holda xorij tajribasini o'zlashritish talab etiladi va bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi 134-sonli "2022-2026-Yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida quyidagicha o'z tasdiqini topdi: "Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga ularning o'quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy qilishga ko'maklashsin, shu jumladan ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib borsin hamda dasturlarni sotib olish va amaliyotga tatbiq etish uchun zarur mablag'larni ajratsin" [1].

Ta'limni ta'minlash va boshqarishda xususiylashtirishning afzalliklari quyidagilardir:

- kam ta'minlangan bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;
- tanlov uchun imkoniyat;
- yuqori darajadagi samaradorlik ehtimoli;
- innovatsiyalar salohiyatini oshirish [2] .

Milliy dasturning asosi nimalardan iborat? Bu o'quvchi va uning qadr qimmatini. Uning manfaatlari va ehtiyojlari doimo birinchi o'rinda turadi. O'quvchilarning tinchligi, sog'lomligi, erkinligi ta'minlanadi. Harakati cheklangan o'quvchilar uchun "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash" mavzusida seminar-treninglarni doimiy ravishda tashkil etish. Ko'zi ojiz o'quvchilar uchun maxsus Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o'quv qo'llanma)larni tayyorlash va chop etish bilan bog'liq barcha uskuna va jihozlar, Brayl shriftidan foydalanish uchun mo'ljallangan qog'oz mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod etish hamda Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o'quv qo'llanma)larni chop etish bilan shug'ullanadigan nashriyotlarga soliq imtiyozlarini taqdim etishdek ulkan imkoniyatlar yaratib berildi.

"Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir" shuning uchun boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilar ilmni to'g'ri va mustahkam o'zlashtirishlariga e'tibor berish kerak. Xususiy maktablarda darslar turli xil interfaol, interaktiv metodlar asosida olib boriladi. Xususiy maktabning avzalliklari nimalar?

Raqamlashtirilayotgan zamonda ko'proq yosh ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktablarga berishni xohlashadi va o'qitishga harakat qilishadi. Negaki, xususiy maktablarda berilayotgan ta'lim sifati juda yuqori darajada tashkillashtiriladi. Buning sababi chuqur bilimga ega, shijoatli pedagog kadrlarni jalb qilinganligidir. Ular o'z o'quvchilarida vatanga muhabbat, ilmga intilish, ijodiy fikrlashni yuksaltirish va turli to'siqlarni yengib o'tishni o'rgatadilar.

Sinfda o'quvchilar miqdorining kamligi bilimlarni puxta egallashga zamin yaratdi. O'qituvchi fokusni 30 ta o'quvchiga emas 10-12 o'quvchiga qaratadi. Bor bilimi tushunturib, yetkazib berish uchun ajratilgan 45 minutlik akademik soat yetarli hisoblanadi. Kam sonli sinf o'quvchilarning har biri bilan individual shug'ullanishga imkoniyat yetarli bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning bilim salohiyatidan kelib chiqib, dars davomida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Xususiy maktablarning eng afzal tomoni shundan iboratki, ularning maxsus o'quv dasturga ega ekanligidir. Bu bilan ular davlat maktablaridan farq qilishadi. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini o'zlari tuzadilar. Ular mustaqil bo'lganligi sababli, dars ketma-ketligi, amaliyot bilan bog'lash faoliyati o'zlarining nazorati ostida bo'ladi. Xususiy maktablarda o'quv dasturlari ancha kengroq, xorijiy davlat tajribalarini bimalol qo'llay olish imkoniyati ega bo'lishadi. Axborot bazasi ham ancha keng. Chuqurlashtirilgan ta'lim bo'lganligi uchun, chet el manbalari bilan boyitilgan.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar bo'sh vaqtlaridan unumli va mazmunli foydalanishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar o'quvchining qiziqishidan kelib chiqib, moyilligi asosida tanlanadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar turli tumaligi va noodatiyligi bilan ajralib turadi.

Xususiy maktab binolari ham ko'rinish jihatdan o'zgacha uslubga ega bo'ladi. O'ta zamonaviy, dekoratsiyalar rang-barang insonni o'ziga tortadi va ilhomlantiradi. Ta'lim olish o'zgacha xuzur baxsh etadi. O'quvchilar qalbida faxr tuyg'usini uyg'otadi. Shu asosida o'quv maskaniga mos ravishda bilim olishga harakat qilishadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, qiziqish bilim olishning asosiy turtkisi hisoblanadi. Qiziqish-havas, jumladan, kishining o'zini qiziqtirgan narsaga erishuviga doimo intilishida, bu narsani bilib ishga, shu narsani o'ziga yaqinlashtirish va uni egallab olish uchun har doim intilishida ifodalanadi. Odamlarga xos bo'lgan turli xil qiziqishlar orasida har bir kishining biron-bir sohaga asosiy qiziqish-havasi bo'ladi. Shunday qiziqish-havasning bo'lishi shaxsning individual xususiyatini tashkil etadi. Individual qiziqish-havas -

kishining o'z hayotida, dunyoda ma'lum bir narsani eng muhim, eng qimmatli hisoblab, shu narsaga erishmoq uchun intilishidir [4] .

Sun'iy intellektli kampuslar bu maktablarning yutuqlaridan biridir. Eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ilm-fan o'choqlarida o'quvchilar mazmurtli hordiq chiqadarilar. Bundan tashqari odatiy sport mashg'ulotlari noodatiy uslubda shug'ullanish mumkin. Sinfdan tashqari to'garaklar qiziqarliligi va xilma-xilligi hech bir o'quvchini nazardan chetda qoldirmaydi.

Hammaga ma'lumki, xususiy maktablarni tamomlagan o'quvchilar kirish imtihonlarida yuqori natijalarga erishishadi. Bu puxta o'ylangan va to'g'ri tashkil etilgan darslar samarasidir. Xususiy maktablar bolada bilim olishga intilish madaniyatini rivojlantiradi va o'quvchilarni eng yaxshi yutuqlarga erishishga undaydi. Xususiy maktablarga ota-onalar tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar bu borada o'zini oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
2. Thom-Otuya, Thom-Otuya, Vincent Chinyere. (2010). THE RELEVANCE OF PRIVATE SCHOOLS TO THE EDUCATIONAL DEVELOPMENT IN A GROWING ECONOMY. universal journal on sustainable developmental research. VOL.7 NO.4
3. IVANOV P.I., ZUFAROVA M.E. UMUMIY PSIXOLOGIYA. O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAM IYATI NASHRIYOTI . T.: - 2008. 393-b.